

ISLOM MANBALARIDA JAMIYAT BARQARORLIGINI TA'MINLASHGA DOIR OYATLAR TAHLILI (Qur'on karim misolida)

Tojiddinov Kamolidin Sadritdin o'g'li

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi

"Islomshunoslik" ta'lim yo'nalishi talabasi,

Ilmiy rahbar: Sodiqov Jo'rabek

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi

"Islomshunoslik va islom sivilizatsiyasini o'rganish ICESCO"

kafedrasi dotsenti, Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Maqolada dunyoda jamiyat barqarorligini ta'minlash borasida Qur'oni karimda kelgan oyatlar tahlilini va olimlarning ayrim tadqiqotlari asosida yuzaga xulosalari keltirilgan.

Annotation: The article presents the analysis of the verses of the Holy Qur'an about ensuring the stability of society in the world and the conclusions based on some researches of scientists.

Аннотация: В статье представлен анализ аятов Священного Корана об обеспечении стабильности общества в мире и выводы, основанные на некоторых исследованиях ученых.

Kalit so'z: Qur'oni Karim, jamiyat, barqarorlik, gender tengligi, tamoyil, oyat, adolat.

Ключевые слова: Священный Коран, общество, стабильность, гендерное равенство, принцип, аят, справедливость.

Key words: Holy Quran, society, stability, gender equality, principle, verse, justice.

Ma'lumki dunyoda turli tabaqalardagi insonlar umrguzaronlik qiladi. Ularning dunyoqarashi, dunyoda kechayotgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va barcha sohalardagi voqeliklarga bo'lgan munosabati turlicha. Barcha mavjud qonun-qoidalar asosida hayot kechirilmasa, turli ijtimoiy, g'oyaviy masalalarda ixtiloflar, kelishmovchiliklar yuzaga kelishi mumkin. Islom ta'limotida Odam yaratilganidan boshlab oxirgi zamon ummatlari ya'ni Muhammad alayhissalom davrigacha yashab o'tgan xalqlarga shariat, muqaddas kitoblar yuborilgan. Qur'oni karimda ham ijtimoiy barqarorlik, bag'rikenglik, oilada er-xotin munosabatlariga oid oyatlar mavjud. Masalan bugungi kunda gender tengligi masalalariga bo'layotgan munosabatlar turlicha. Lekin Qur'oni Karim oyatlari asosida tadqiqotchilarimiz bu borada ham o'z munosabatlarini quyidagicha bildirib o'tishgan:

"Ma'lumki Qur'oni karimda jummalarni qismlarga ajratib ta'riflash an'anaviy bo'lmagan. Har bir tilde, jumladan arab tilida ham erkak kishilar va xotin-qizlarga murojaat qilganda soddagina xonimlar va janoblar deya qolishadi. Ammo, oyatlarni

ko'rganimizda har bir jins vakillarining tengligi, Alloh taolo huzurida hurmatga sazovorligini ta'kidlash maqsadida, aytaylik, erkak kishining belgilari va xususiyatlarini tavsiflovchi so'zlar (sifatlar) bekam-ko'st, aynan ayollarga ham tegishli tarzda ifodalanadi.

Ya'ni:

Erkaklar	Ayollar
Muslim	Muslima
Mo'min	Mo'mina
Itoatli	Itoatli
Rostgo'y	Rostg'oy
Sabrli	Sabrli
Tavozu'li	Tavozu'li
Sadaqa qiluvchi	Sadaqa qiluvchi ¹

Qur'on karimda jamiyat barqarorligini ta'minlashga oid ko'plab oyatlarni uchratamiz. Ularning barchasi qadimdan musulmonlar o'rtasida asosiy ijtimoiy qadriyatlarni, insonlar o'rtasidagi adolatli munosabatlarni va ma'naviy tarbiyani ta'minlash orqali jamiyatning barqarorligini mustahkamlaydi. Quyida Qur'onda jamiyat barqarorligini ta'minlashga qaratilgan ba'zi asosiy oyatlar va ularning tahlili keltirilgan:

1. Insonlarni adolatga chaqirish bo'lib, unga Qur'ondagi Niso surasi, 135-oyat oyat misol bo'ladi:

“Ey, imyon keltirganlar! Adolat ila turing xamda agar o'zingiz, ota-onangiz va qarindoshlaringiz ziddiga bo'lsa ham, Alloh uchun to'g'ri guvohlik beruvchi bo'ling. Agar u boy bo'lsa xam, kambag'al bo'lsa ham, Alloh unga yaqinroqdir, Havoyi nafsga ergashib, adolatsizlik qilmang. Agar tilingizni bursangiz yoki yuz o'girib ketsangiz, albatta, Alloh nima qilayotganingizdan xabardordir”².

Bu oyatda adolatli bo'lish muhim ahamiyat kasb etishini e'tirof qiladi. Zero Allohning “al-Adl” sifati bilan barchaga munosabat qilishi haqidagi ma'lumotlar kishini xulosa qilishga undaydi. Adolat jamiyat barqarorligining eng asosiy unsurlaridan biri hisoblanadi, chunki u kamsitish, zo'ravonlik va tengsizliklarning oldini olishga yordam beradi. Qur'on adolatni nafaqat yaqinlariga nisbatan, balki har qanday holatda, xatto o'z manfaatlariga qarshi ham amalga oshirishni talab qiladi. Bu esa jamiyatda barqaror va sog'lom munosabatlarni mustahkamlaydi.

¹ N.J.Yusupova, B.B.Mamadiyev, M.M.Haydarov. Islomda gender tengligining o'ziga xos tamoyillari. [Matn]: qo'llanma/ – Toshkent: Baktria press, 2022. – 176 b.

² Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. “Qur'oni karim va o'zbek tilidagi ma'nolari tarjimai”. - Istanbul: “ACAR BASIM VE CILT SAN.TIC.A.Ş” bosmaxonasi, 2017. – B. 399.

2. Halollik va boshqalarning haqqiga rioya qilish haqida Baqara surasining 188-oyatida quyidagicha aytiladi:

“Bir-birlaringizning mollaringizni botil yo‘l bilan yemang. Bilib turib odamlarning mollaridan bir qismini yeyishingiz uchun xokimlarga gunoxkorona tashlamang”³.

Bu oyat insonni halollikka, boshqalarning haq-huquqlarini buzmaslikka chaqiradi. Mol-mulkni nohaq yo‘l bilan olish, pora berish kabi illatlar jamiyatning ijtimoiy muvozanatini buzadi. Qur‘oni karimda bunday amallardan tiyilish kerakligi, jamiyatda barqarorlik va o‘zaro ishonchning kafolatlanishi ta’kidlangan.

3. G‘iybat va ig‘vogarlikdan tiyilish haqida Hujurot surasining 12-oyat-oyatida quyidagicha qaytariq bor:

“Ey, imyon keltirganlar! Ko‘p gumonlardan chetda bo‘linglar, chunki ba‘zi gumonlar gunohdir. Josuslik qilmanglar. Ba‘zilaringiz ba‘zilaringizni g‘iybat qilmanglar. Sizlardan birortalarigiz O‘zining o‘lgan birodarining go’shtini yeyishni yaxshi ko‘rurmi? Xa, yomon ko‘rasizlar. Allohdan qo‘rqinglar! Albatta, Alloh tavbani ko‘p qabul qiluvchi va rahimlidir”⁴.

G‘iybat, ig‘vo va gumon jamiyatda bo‘linish va nizo keltiradigan salbiy xususiyatlardir. Qur‘on bu kabi xulqlarni taqiqlaydi, chunki ular ijtimoiy aloqalarni zaiflashtiradi va odamlar o‘rtasidagi o‘zaro ishonchni yo‘qotadi. Bu oyat jamiyat a‘zolarini tinch-totuvlikda yashashga undaydi.

4. Mo‘tadil bo‘lish va kechirimlilik fazilati haqida Baqara surasining 143-oyatida shunday deyiladi:

“Shuningdek, sizlarni odamlar ustidan guvoh bo‘lishingiz va Pay‘ambar sizlarning ustingizdan guvoh bo‘lishi uchun o‘rta millat qildik. Sen avval yuzlangan qiblani, faqat, ortga burilib ketadiganlar kim-u, Payg‘ambarga ergashuvchilar kim ekanini bilish uchungina qilganmiz. Garchi bu ish Alloh hidoyatga solganlardan boshqalarga og‘ir bulsa ham. Alloh imyoningizni zoye qilmas. Albatta, Alloh odamlarga Mehribon va Rahimlidir”⁵.

Bu oyat ummatga mo‘tadillikni buyuradi. Mo‘tadillik– ortiqcha talablardan va haddan oshirishdan tiyilishdir. Jamiyatdagi muvozanat va barqarorlikni saqlash uchun Qur‘on mo‘tadillikni targ‘ib qiladi, bu orqali har bir kishi bir-birining haq-huquqini tan oladi va murosali yashaydi.

³ Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. “Qur‘oni karim va o‘zbek tilidagi ma‘nolari tarjimai”. - Istanbul: “ACAR BASIM VE CILT SAN.TIC.A.Ş” bosmaxonasi, 2017. – B. 399.

⁴ Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. “Qur‘oni karim va o‘zbek tilidagi ma‘nolari tarjimai”. - Istanbul: “ACAR BASIM VE CILT SAN.TIC.A.Ş” bosmaxonasi, 2017. – B. 399.

⁵ Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. “Qur‘oni karim va o‘zbek tilidagi ma‘nolari tarjimai”. - Istanbul: “ACAR BASIM VE CILT SAN.TIC.A.Ş” bosmaxonasi, 2017. – B. 399.

5. Yaxshilikka buyurish va yomonlikdan qaytarish haqida Oli Imron surasi 104-oyatda quyidagicha chaqiriq bor:

“Sizlardan yaxshilikka chaqiradigan, amru ma’ruf, nahiyy munkar qiladigan bir ummat bo’lsin. Ana o’shalar, o’zlari najot topuvchilardir”⁶.

Qur’oni karim jamiyatda yaxshilikni targ’ib qiladigan, odamlarga yomonlikdan qaytaradigan bir guruhning bo’lishini tavsiya etadi. Bunday jamoa yomonliklarning oldini olish va jamiyatda ijtimoiy va ma’naviy qadriyatlarni tarbiyalashda muhim ro’l o’ynaydi. Qur’oni karimdagi bu oyatlar insonlarni to’g’ri yo’lga boshlaydi va har bir a’zosi yaxshi munosabatda bo’lishi uchun yo’riqlar beradi. Yolg’on va nifoqdan tiyilish, muhtojlarga yordam, adolatni saqlash, va mehr-oqibatni kuchaytirish orqali Qur’oni karim insonlarni jamiyat barqarorligini mustahkamlashga chaqiradi.

Shundan kelib chiqib, yoshlarda ijtimoiy tarbiya muhitini shakllantirish zarur. Bu haqda Shayx Usmonxon Temurxon o’g’li Samarqandiy quyidagicha yozadi:

Ijtimoiy tarbiyaning amaliy uslublari nimalardan iborat? Bu uslub to’rt ishda ko’rinadi.

1. Fazilatli qalbni tarbiyalash.
2. Boshqalar haqiga rioya qilish.
3. Umumijtimoiy odoblarni o’rgatish.
4. Nazorat va ijtimoiy tanqid⁷.

Yuqorida keltirilgan ma’lumotlardan ijobiy xulosa chiqarib, amaliyotga tatbiq qilsak, dunyoda jamiyat barqarorligini ta’minlashga hissa qo’shgan bo’lamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. “Qur’oni karim va o’zbek tilidagi ma’nolari tarjimasi”. - Istanbul: “ACAR BASIM VE CILT SAN.TIC.A.Ş” bosmaxonasi, 2017. – B. 399.
2. N.J.Yusupova, B.B.Mamadiyev, M.M.Haydarov. Islomda gender tengligining o’ziga xos tamoyillari. [Matn]: qo’llanma/ – Toshkent: Baktria press, 2022. – 176 b.
3. Shayx Usmonxon Temurxon o’g’li Samarqandiy. Qur’oni Karim va o’zbek tilidagi ma’nolar tarjimasi. Turkiya, Ankara, 2021.

⁶ Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. “Qur’oni karim va o’zbek tilidagi ma’nolari tarjimasi”. - Istanbul: “ACAR BASIM VE CILT SAN.TIC.A.Ş” bosmaxonasi, 2017. – B. 399.

⁷ Shayx Usmonxon Temurxon o’g’li Samarqandiy. Qur’oni Karim va o’zbek tilidagi ma’nolar tarjimasi. Turkiya, Ankara, 2021.